

Til o'rganishda sun'iy intellektning roli va imkoniyatlari

G'ulomov Jamshidbek Islomjon o'g'li

Qo'qon Universiteti, Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

e-mail: jgulomov@kokanduni.uz

Nuriddinova Muslimaxon

Qo'qon universiteti, Turizm va mehmondo'stlik yo'nalishi 1-bosqich talabasi

e-mail: nuriddinovamuslima949@gmail.com

Annotasiya: So'ngi 10 yillikda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj sezilarli darajada oshdi va bu jarayonda sun'iy intellektning o'rni juda katta. Hozirgi kunda sun'iy intellekt ko'plab sohalarda jumladan, transport, bank, ishlab chiqarish, sog'liqni saqlash va ta'limda o'zining hissasini qo'shmoqda. Sun'iy intellekt chet tillari va ingliz tilini o'zlashtirishni yanada tezroq va qulayroq bo'lishini isbotladi.

Bugungi kunda SI vositalari, jumladan, ovozni tanish, tabiiy tilni qayta ishlash, mashinaviy tarjima va adaptiv o'quv dasturlari chet tillarini o'rganish jarayonida o'qituvchi va o'rganuvchi o'rtasidagi interaktivlikni oshirmoqda. Bundan tashqari, mobil ilovalar, virtual yordamchilar va chatbotlar yordamida o'quvchilar o'zlariga mos sur'atda o'rganish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bunday vositalar nafaqat boshlang'ich, balki ilg'or darajadagi til o'rganuvchilar uchun ham qator afzalliklarni taqdim etmoqda. Ushbu maqolada dunyo tillarini o'rganish jarayonida sun'iy intellektning hissasi, uning o'rni va yaratayotgan imkoniyatlari haqida so'z boradi. Ta'lim sohasiga, xususan til o'rganishga sun'iy intellekt qo'shilgandan keyingi davrdagi o'zgarishlar ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, AI, individual, til o'rganish platformalari.

Kirish Sun'iy intellekt (inglizcha; Artificial Intelligence) o'z nomidan bilish mumkinki, inson qo'li bilan yaratilgan, inson aql-idrokiga taqlid qilishga qaratilgan mashinalar yaratuvchi fan tarmog'i. Sun'iy intellekt atamasini ilk bor 1956-yilda konferensiyada Jon Makkarti tomonidan foydalanilgan.[1]. Bugungi kunda sun'iy intellekt atamasi AI (Artifiial Intelligence) o'zining inglizcha nomining bosh harflari bilan butun dunyo ahliga keng tarqalgan. AI turli texnologik xususiyatlarga ega bo'lib, ularga ko'rish, ovozni tanish, tabiiy tilni qayta ishlash, bir tildagi ma'lumotlarni boshqa tilga avtomatik tarzda tarjima qilish, ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish va tavsiyalar berish kiradi. AI nafaqat texnologiyalarni rivojlantirishda, balki kundalik hayotimizni o'zgartirishda ham katta rol o'ynamoqda. XXI asrda sun'iy intellektning qo'llanishi sezilarli darajada kengaydi: aqlli uylar boshqaruvi, haydovchisiz avtomobillar, sanoat robotlari, virtual yordamchilar va hattoki restoranlarda ishlatilayotgan robot-ofitsiantlar bu texnologiyaning eng mashhur namunalari hisoblanadi.

Ushbu maqolada sun'iy intellektning til o'rganish jarayonidagi o'rni, uning ta'lim sohasiga kiritayotgan yangiliklari va kelajakdagi istiqbollari keng tahlil qilinadi.

Shu jumladan ta'lim sohasida ham AI ning o'ziga xos o'rni mavjud. Ayniqsa til o'rganuvchilari va o'rgatuvchilari sun'iy intellektidan foydalanishni boshlashgandan so'ng bu jarayon yana ham qulaylashdi va jadallashdi. Hozirgi kunga kelib, dunyoning ba'zi rivojlangan davlatlarida robot o'qituvchilarni va aqlli doskalarni ko'rish mumkin va bu yo'l bilan inson resurslaridan kamroq foydalangan holda, sun'iy intellekt bilan o'quvchilarga dars o'tishmoqda. AI insonlar hayotiga

shunday ta'sir qildiki, ular kam mehnat qilishadi, biroq ko'p ish bajarishadi.

So'nggi yillarda xorijiy tillarni o'rganish jamiyatda "urf" bo'lib qoldi va bu jarayon sun'iy intelleksiz tasavvur qilib bo'lmaydi. AI chet tilini o'rganishda ko'plab afzalliklarni taklif etmoqda. Misol uchun, inson resurslari cheklangan va vaqt o'tishi bilan tugaydi. Insonning hayoti davrlarga bo'lingan: yoshlik, yetuklik va keksalik. Shu davrlar davomida inson pul, vaqt va kuch kabi resurslarga ehtiyoj sezadi, bu esa til o'rganish ishtiyoqini cheklashi mumkin. Ammo AI yordamida bu cheklovlarni yengish imkoni mavjud.

Ba'zi insonlar omma oldida gapirishda noqulaylik sezib, yolg'iz o'rganishni afzal ko'rishadi. AI ularga maxsus sharoit yaratadi va virtual yordamchilar orqali suhbat qurish, talaffuzdagi xatoliklarni tuzatish, qiziqarli topshiriqlarni bajarish va o'zlarini erkin his qilish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, bunday yondashuv motivatsiyani oshiradi va jarayonni yanada samarali qiladi (Vesselinov & Grego, 2012).

Sun'iy intellektga asoslangan ilovalar va platformalar bugungi kunda juda mashhur. Mobil ilovalar orasida, masalan, **Memrise** – kartochkalar asosida o'quv platformasi bo'lib, chet tilini o'rganishga ixtisoslashgan. Memrise'da 25 tilda 150 dan ortiq kurslar mavjud bo'lib, platformada 20 milliondan ortiq foydalanuvchi ro'yxatdan o'tgan. Bu platforma 2017-yilda Google Play mukofotini qo'lga kiritgan va bugungi kungacha juda samarali hisoblanadi (Memrise, 2017). Memrise'dan tashqari, **Duolingo**, **Babbel**, **Talkpal** kabi ilovalar ham keng qo'llanilmoqda. Ushbu ilovalar foydalanuvchilarga bir vaqtning o'zida bir necha tillarni o'rganish imkoniyatini beradi. Shuningdek, ular individual til o'rganuvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda maxsus mashqlar va tahlillarni taklif qiladi.

Luckin va boshqalar (2016) tomonidan olib borilgan tadqiqotda AI texnologiyalari ta'lim jarayonlarini shaxsiylashtirishdagi ahamiyati ta'kidlangan. Tadqiqotda aytilishicha, sun'iy intellekt yordamida o'quvchilar o'z ehtiyojlariga mos ravishda o'qish jarayonini tashkil qila oladi. Masalan, til o'rganishda Duolingo va Memrise kabi platformalar foydalanuvchilarga shaxsiylashtirilgan mashqlarni taklif qilib, ularning bilim darajasini hisobga oladi. Ushbu platformalarning foydasi shundaki, ular o'quvchilarning qaysi mavzuda yoki qaysi ko'nikmada qiynalayotganini aniqlab, shu yo'nalishda ko'proq amaliy mashqlar taqdim etadi. Bu yondashuv nafaqat o'quvchining bilim olish tezligini oshiradi, balki uning mustaqil ta'lim olishiga imkon beradi. Holms va boshqalar (2018) shaxsiylashtirilgan ta'limning afzalliklarini tadqiq qilib, sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida an'anaviy sinf xonalaridagi barcha o'quvchilarga bitta uslubda dars o'tishdan farqli ravishda har bir o'quvchiga alohida yondashish imkoniyati paydo bo'lganini ta'kidlagan.

Oldingi tadqiqotlardan ko'rinib turibdiki, sun'iy intellekt til o'rganishda beqiyos imkoniyatlar yaratadi. AI texnologiyalari shaxsiylashtirilgan yondashuvni ta'minlab, o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashadi va ularning motivatsiyasini oshiradi. Shu bilan birga, talaffuzni rivojlantirish, shaxsiy xatolarni tahlil qilish va ularni tuzatish imkoniyati til o'rganishni yanada samarali qiladi. Biroq, AI texnologiyalarining faqatgina qo'shimcha vosita sifatida qaralishi, an'anaviy ta'lim usullari bilan birgalikda ishlashi muhimdir.

Xulosa Umumiy qilib aytganda, sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim sohasida, xususan, chet tillarini o'rganishda inqilobiy o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Sun'iy intellektning kundan-kunga takomillashib borayotgani nafaqat o'qituvchilar va o'quvchilar uchun qulayliklar yaratmoqda, balki ta'lim jarayonini samarali va shaxsiylashtirilgan qilish imkonini bermokda. Misol uchun, til o'rganishda AI texnologiyalari foydalanuvchilarga ularning

darajasiga mos mashqlar, talaffuzni tuzatish imkoniyati va gamifikatsiya orqali motivatsiyani oshirishga xizmat qiladi. Bu esa ta'lim jarayonining sifatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellektning bugungi kunda ta'lim va til o'rganishdagi ahamiyati juda yuqori. Biroq, texnologiyadan oqilona foydalanish juda muhim. Yosh avlodni ushbu texnologiyalardan to'g'ri yo'nalishda foydalanishga o'rgatish orqali kelajakda bilimdon va zamonaviy jamiyatni shakllantirish mumkin. Sun'iy intellektning yutuqlari ta'limda yangi ufqlar ochib, chet tillarini o'rganishda insoniyatning ishonchli ko'makchisiga aylanayotgani shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Omina Muxiddinova Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Journal of new century innovations. Chet tillarini o'rganishda sun'iy intellektning o'rni
2. McCarthy, J. (1956). *Artificial Intelligence: A Science of Machine Behavior*. Proceedings of the Dartmouth Conference on AI.
3. Russell, S. J., & Norvig, P. (2016). *Artificial Intelligence: A Modern Approach* (3rd ed.). Pearson Education.
4. Otto, M., & Thornton, J. (2024). SHARQ VA G'ARB ADABIYOTIDAGI QAHRAMON OBRAZLARI: MADANIY O'XSHASHLIK VA FARQLAR. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 13, 202-204.
5. G'ulomov, J. (2024). SHARQ VA G'ARB ADABIYOTIDAGI QAHRAMON OBRAZLARI: MADANIY O'XSHASHLIK VA FARQLAR. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 13, 202–204. <https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1056>
6. Madumarov Muhammadodil Matkomilovich (2025) READING BETWEEN THE LINES: USING LITERATURE TO BOOST ENGLISH LITERACY. Vol. 1 No. 7 (2025): MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS
7. КОНЦЕПЦИЯ "КРАСОТА" КАК ОБЪЕКТ ИССЛЕДОВАНИЯ. (2024). Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(12), 135-143. <http://www.mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/2124>
8. Axmadjonov, A., & Sultonova, G. (2024). "CONTENT AND LANGUAGE INTEGRATED LEARNING" (CLIL) METODINING INGLIZ TILINI O'QITISHDA QO'LLANILISHI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 13, 278–280. <https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1075>
9. Avazbek, A. (2024). THESIS FOR A RESEARCH ON ZONE OF PROXIMAL DEVELOPMENT AND ITS EFFECTIVENESS. Kokand University Research Base, 39-46
10. Begmatov, A. (2024). STUDY OF ONOMASTIC UNITS IN ENGLISH AND UZBEK. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 4(12), 274–280. <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I12Y2024N43>
11. Matkomilovich, M. M. (2024). EXPLORING TRANSLATION TECHNIQUES FOR HEROIC CHARACTERS IN LITERATURE. JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN, 7(5), 141-149.
12. Matkomilovich, M. M. (2024). CULTURAL ADAPTATION AND SYMBOLISM IN TRANSLATING HEROIC FIGURES. IMRAS, 7(5), 541-550.